

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

O'ZDJTU rektori

I.Tuxtasinov

“20” 04 2026 yil

**Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutiga kiruvchilar uchun
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligidan
DASTUR**

Toshkent – 2026

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik
mutaxassisligi bo'yicha tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka kirish
imtihoni dasturi O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining "Ingliz tilini
o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyalari" kafedrası majlisida muhokama
qilindi va _____ 2026 yilda foydalanishga tavsiya etildi.

Tuzuvchilar: filologiya fanlari doktori, professor D.S.Qulmamatov
filologiya fanlari doktori, professor D. Jumanova
filologiya fanlari doktori, professor G.Xalliyeva
filologiya fanlari doktori, professor X. Samigova
filologiya fanlari doktori, professor M.Umarova
filologiya fanlari doktori, professor U. Yo'ldoshev
filologiya fanlari doktori, professor D. Baxronova

Taqrizchilar:	O'zDJTU professori, f.f.d., Axmedov O.S.
----------------------	--

Alfraganus universiteti professori, f.f.d. Xudjayeva R.

Mundarija

1. Kirish.....	3
2. Kirish imtihonining asosiy talablari.....	3
3. Qiyosiy adabiyotshunoslik.....	4
4. Qiyosiy-tarixiy, tipologik chog'ishtirma tilshunoslik.....	5
5. Tarjimashunoslik.....	7

KIRISH

Mamlakatimizda chet tillarini o'qitishni rivojlantirish, ta'lim sifatini yuksaltirish, o'quvchi yoshlarning chet tillarni o'rganish bo'yicha ko'nikma va malakalarini oshirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorini amalga oshirishda boshqa fanlar bilan bir qatorda adabiyotshunoslik, tilshunoslik va tarjimashunoslikning ham o'z maqsadi va vazifalari mavjud.

Til murakkab muloqot tizimi hisoblanadi. Xalqlar muloqoti uchun, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar uchun ham til asosiy vositadir. Har bir xalqning rivojlanishida adabiy-aloqalar ham muhim o'rin tutadi. Adabiy aloqalarni rivojlantirish esa xalqlar o'rtasidagi m'anaviy-ma'rifiy munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Tarjimashunoslik bo'lsa barcha xalqlar urf-odatlarini va ilmiy ishlari bilan yaqindan tanishishga imkon beradi. Ko'rinib turibdiki, adabiyotshunoslik, tilshunoslik va tarjimashunoslik kabi fanlar yurtimiz ravnaqida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur dastur qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kirish imtihoni uchun mo'ljallangan. Ushbu dastur qiyosiy adabiyotshunoslik, choq'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik bo'yicha ilmiy izlanishlar, dolzarb muammolar, zamonaviy yo'nalishlar, nazariy ta'limotlar, adabiy aloqalar va lingvistik maktablar, lingvistik konsepsiyalarga oid bilim va ko'nikmalarni tekshirish va baholash uchun ishlab chiqilgan.

1. KIRISH IMTIHONINING ASOSIY TALABLARI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik mutaxassisligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kirish imtihonida quyidagi mavzular bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bayon qila olishi talab etiladi.

Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik fanlarining predmeti, maqsadi va vazifalarini bilish. Ushbu yo'nalishlarning o'zaro bog'liqligi va farqli jihatlarini tushunish. Turli milliy adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'lish. Adabiy ta'sir, intertekstual aloqalar va janrlararo bog'liqliklarni aniqlay olish. Chog'ishtirma tilshunoslik asoslari: tillarni qiyoslash mezonlari, fonetik, leksik va grammatik darajalarda o'xshashlik va farqlarni tahlil qila olish. Til tizimlarining tipologik xususiyatlarini tushunish. Tarjimashunoslikning nazariy asoslarini bilish: tarjima turlari, strategiya va usullar, adekvatlik va muqobillik tushunchalari. Tarjima jarayonida yuzaga keladigan leksik, grammatik, stilistik va frazeologik muammolarni anglash. Matnni tahlil qilish va tarjima qilish ko'nikmasi: original matn mazmunini to'g'ri anglash, asosiy g'oyani ajratish va uni boshqa tilga mos ravishda ifodalash. Madaniyatlararo kommunikatsiya asoslarini tushunish: milliy-madaniy birliklar, urf-odatlar, realiyalar va ularni tarjimada to'g'ri berish usullarini bilish. Ilmiy yondashuv va tahlil qilish malakasi: nazariy manbalar bilan ishlash, ilmiy fikrni asoslab bayon etish, terminlardan to'g'ri foydalanish. Zamonaviy tarjima texnologiyalaridan

xabardorlik: AI (sun'iy intellekt) va CAT vositalarining imkoniyatlari, ularni tarjima jarayonida qo'llash asoslarini bilish. Og'zaki va yozma nutq kompetensiyasi: fikrni aniq, mantiqiy va izchil ifodalash, ilmiy uslubda yozish va gapirish ko'nikmalariga ega bo'lish.

2. DASTURNING ASOSIY MAZMUNI

Qiyosiy adabiyotshunoslik

Qiyosiy adabiyotshunoslik fanining maqsad va vazifalari. Qiyosiy adabiyotshunoslik fanining predmeti. Filologik komparativistika haqida tushuncha. Adabiy komparativistikga xos xususiyatlar. Qiyosiy adabiyotshunoslik obyekti: (N.I.Konrad, V.M.Jirmunskiyning nazariy xulosalari) Mikrokomparativistika va makrokomparativistika asoslari. Qiyosiy adabiyotshunoslik fan sifatida. Ilk nazariy komparativistik qarashlar. A.N. Veselovskiy, V.M. Jirmunskiy, A.Dima, A.Dyurishinning qiyosiy adabiyotshunoslikka old tadqiqotlari. Qiyosiy tahlilning ilmiy-nazariy asoslari. Qiyosiy tahlil obyektlari. Qiyosiy tahlilning vazifalari. Qiyosiy tahlilning mantiqiy vazifasi. Qiyosiy tahlilning metodologik vazifasi. Qiyosiy tahlilda dunyoqarash vazifasi. Qiyosiy tahlilning baholovchi (akseologik) vazifasi. Qiyosiy tahlilning emperik vazifasi. Qiyoslash jarayonidagi eng muhim bosqichlar. Qiyoslanishi mumkin bo'lgan tipik vaziyatlar.

Qiyosiy adabiyotshunoslik metodologiyasi. Ilmiy-tadqiqot metodlari va qiyosiy tahlil. Qiyosiy-tarixiy va chog'ishtirish metodi xususida. Qiyoslash natijalarini baholashning mezonlari. Qiyosiy tahlil natijalarining xolisligini ta'minlash shartlari. Poetika haqida tushuncha. Poetikaning tasnifi. Poetikaning umumiy, tavsifiy normativ, nazariy va tarixiy poetika kabi turlari. Badiiylik va badiiy mahorat. Badiiylikning 10 ta mezonlari: Gumanizm (insonparvarlik). Estetik tuyg'uni shakllantira olish. Hayotiy haqiqatga sodiqlik. Chuqur mushohada. Muallif g'oyasining mantiqiyligi va ijodiy fantaziyasining kengligi. Umumlashtirish va tipiklashtirish qobiliyati Badiiy detallarning aniqligi va qaysidir g'oyaga xizmat qilishi. Syujet qurilishi va obrazlar tizimini yaratishdagi mahorat. Qahramonlar ichki dunyosini mahorat bilan ochib berilishi. Asar tilining boyligi va rang-barangligi. Poetikaga oid zamonaviy tadqiqotlar. Milliy, hududiy va jahon adabiyoti. Adabiyotlararo aloqalar va ularning 5 ta asosiy turi haqida. Tipologiya va tipologik mushtaraklik. Tipologik o'xshashliklar va ularning turlari. Adabiyotshunoslikda multikulturalizm.

Adabiyotshunoslikda «jahon adabiyoti» tushunchasi. Jahon adabiyotining durdona asarlari. Jahon adabiyotida qiyoslash mumkin bo'lgan asarlar. Alisher Navoiyning «Layli va Majnun» hamda Shekspirning «Romeo va Juletta» asarlari. Jahon adabiyotida qiyoslash mumkin bo'lgan adabiy davrlar. Sharq va Garb adabiyotiga xos asosiy xususiyatlar. Sharq va G'arb badiiy tafakkurida sentimentalizm, romantizm, naturalizm, realizm.

Milliy, mintaqaviy va jahon adabiyoti tushunchalari. Janr tushunchasining millatlararo tipologik o'xshashligi va o'ziga xosligi (masalan, Sharq va G'arbda lirika, epika va dramaturgiya). Sharq va G'arb ma'rifatparvarlik adabiyoti. Badiiy asarning boshqa madaniy muhitda qabul qilinishi (retsepsiya) va uning

transformatsiyasi. G'arb janr shakllarining Sharq adabiy muhitiga kirib kelishi (masalan, roman janrining o'zbek adabiyotiga kirib kelishi va milliy adaptatsiyasi). Badiiy nutq va unga qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan qarash. Badiiy matnda hikoya qilish (narration) nazariyasi va uning tarixiy-qiyosiy taraqqiyoti. Turli xalqlar adabiyotidagi "sayyor syujetlar" (wandering motifs) va "tipologik o'xshashliklar" o'rtasidagi nazariy-metodologik farqlar. G'arb va Sharq adabiyotshunosligida "Komil inson" (Ideal Human) konseptining mifopoetik ildizlari va falsafiy talqini. Lotin amerikasi adabiyotida qiyosiylik. Yapon va koreys adabiyotlarining qiyosiy aspektlari. Afrika mamlakatlari adabiyotining qiyosiy manzarasi. Globalizm sharoitida millatlararo yaqinlashuv jarayoni. Buyuk adabiyotlar va kichik adabiyotlar munosabati. Intertekstuallik qiyosiy adabiyotshunoslik obyekti sifatida

TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Болтабоев Х. Жаҳон адабиётшунослиги тарихи. Магистратура таълими учун дарслик. – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2020.
2. Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение. Восток и Запад – М.: Наука, 1979. – 495 с.
3. Халлиева Г. Қиёсий адабиётшунослик. – Т.: Академ нашр, 2020. – 160 б.
4. Comparative literature in the age of multiculturalism. Edited by Carles Bernheimer. The John Hopkins University Press. – London, 1995.
5. Gale Contextual Encyclopedia of American Literature. – Gale. USA, 2009.
6. Jo'raqulov U., Hamroyev K. Qiyosiy adabiyotshunoslik. – Т.: "Lesson press", 2021.
7. Oxford companion to English literature. Margaret Drabble. Oxford University press. 2000.
8. Qosimov A., Hamroqulov A., Xo'jaev S. Qiyosiy adabiyotshunoslik. – Т.: "Akademnashr", 2019.
9. Shunqing Cao. The Variation Theory of Comparative Literature. Chuan University China. Springer. – Verlag Berlin Heidelberg, 2013.
10. Theories of Comparative Literature. – South Valley University
11. Xalliyeva G. Qiyosiy adabiyotshunoslik. O'quv qo'llanma. – Т.: Akadem nashr, 2020. – 160 b.
12. Khalliyeva G., Kholikov B. Comparative Literature. – Turkey: Fenomen, 2023. – 163 p.
13. Халлиева Г.И. Сравнительное литературоведение. Учебное пособие. – Ташкент, 2024. – 150 с.
14. Jahon adabiyoti. G.Xalliyeva va boshqalar. Jamoaviy darslik. – Toshkent: «EFFECT-D», 2024. – 514 б.

15. U.Jo'raqulov, G.Xalliyeva, A.Qosimov Qiyosiy adabiyotshunoslik. Darslik – Toshkent: Best-publish nashriyoti, 2025.
16. C. Domínguez, Saussy.H., Villanueva, D. Introducing Comparative Literature: New Trends and Applications. - London, 2015.
17. Hutchinson B. Comparative Literature: A Very Short Introduction. - Oxford: Oxford University Press, 2018.

3. Qiyosiy-tarixiy, tipologik chog'ishtirma tilshunoslik

Qiyosiy tipologiyaning predmeti va maqsadi. Tillar tipologiyasi tillar tuzilishining umumiy qonunlarini o'rganuvchi tilshunoslikning alohida bo'limi. Lingvistik tipologiyaning rivojlanishi. Lingvistik tipologiya rivojlanishining asosiy faktorlari. Lingvistik tipologiya va uning predmeti. Tillar tipologiyasi bo'limlari: tipologiya, genetik tipologiya, (qiyosiy-tarixiy tilshunoslik), areal tipologiya (areal tilshunoslik). Xorijiy va ona tilining qiyosiy tipologiyasi fanining tarjima va chet tilini o'qitish metodikasi fanlari bilan aloqasi. Bu fanning kelib chiqishi va rivoji. Strukturaviy tipologiya. Til birliklarining semantik, strukturaviy rivojlanishi. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik namoyandalari va ularning bu fanga qo'shgan hissalari.

Tilda mikro va makrokategoriyalar va ularni qiyoslash. Makrokategoriyalar: grammatik kategoriyalar, semantik maydon, leksik-semantik guruh, sintaktik kategoriya, so'z yasash maydoni, so'z turkumi, sintaktik maydon va boshqalar. Makrokategoriyalar: tushuncha kategoriyasi (I.I. Meshchaninov), funksional-semantik maydon, (A.V. Bondarko), grammatik-leksik maydon, (E.V. Guliga, Ye.I. Shendels), tipologik kategoriya (J. Bo'ronov). Tipologik va milliy kategoriyalar. Funksional-semantik, grammatik-leksik va tipologik kategoriya nazariyalarining bir-biriga yaqinligi va ular tildagi aynan bir til hodisasiga turlicha yondashishning natijasi ekanligi. Lingvistik tipologiyadagi asosiy parametrlar klassifikatsiyasi.

Lingvistik tipologiyaning rivojlanishi va uning asosiy faktorlari. Lingvistik tipologiyaning til yaruslariga ko'ra bo'limlari. Chog'ishtirma tilshunoslik va tipologiya. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik va tipologiya.

Ko'plik tipologik kategoriyasi. Tipologiyaning segment yarusi. N.Xomskiy tipologik qarashlari. Lingvistik universalialar. Mayl tipologik kategoriyalar. Semantik tipologiya. Tillarning tovush tuzilishidagi tipologik farqlari. So'z tartibi tipologiyasi: qat'iy va erkin so'z tartibi. Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asarida tipologik qarashlar. Qiyosiy tipologiya va lug'at turlari. So'z boyligi boyishining tahlili. A.Navoiyning "Muhokamat-ul lug'atayn" asaridagi tipologik qarashlar. Tipologiyada allomorfizm tushunchasi. Qiyosiy tipologiya,

chog'ishtirma tilshunoslik va semasiologiya. Qiyosiy tipologiya va leksik-stilistik usullar. Lingvokulturologiya va olam manzarasi nazariyalari. Chog'ishtirma tilshunoslik predmeti. Qardosh va qardosh bo'lmagan tillarni qiyoslash. Kontrastiv lingvistika. Chog'ishtirma tilshunoslik metodlari. Kognitiv tilshunoslik va chog'ishtirma tilshunoslik. Qiyosiy tilshunoslik va lingvokulturologiya, madaniy kod tushunchasi. Chog'ishtirma tilshunoslik va pragmal lingvistika.

TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдуазизов А.А. Тилшунослик назариясига кириш: Олий ўқув юртларининг фил. фак. талабалари учун дарслик – Т.: Шарқ, 2010. – 176 б.
2. Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика. Введение в когнитивную лингвистику. – Тамбов: ФГБОУ ВПО Тамбовский государственный университет имени Г.Р.Державина, 2014. – 236 с.
3. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – 208 с.
4. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Т.: Mumtoz so'z, 2010. – 288 б.
5. Расулов Р. Умумий тилшунослик. – Т.: Fan va texnologiya, 2007. – 256 б.
6. Расулова М.И. Основы лексической категоризации в лингвистике. – Т.: Фан, 2005. – 268 с.
7. Сабитова З.К. Лингвокультурология. – М.: Флинта, 2013. – 521с.
8. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 92 б.
9. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2000. – 300 б.
10. Томашпольский В.И. Сравнительная типология французского и русского языков: учеб. Пособие / В.И. Томашпольский. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2010. – 288 с.
11. Хашимов Г. Типология сложных предложений разносистемных языков. – Т.: Фан, 1991 – 105 с.
12. Ҳақимов М. Прагмалингвистика курсига кириш. – Фарғона. Classic, 2022. – 396 б.
13. Юсупов У.К. Теоретические основы сопоставительной лингвистики. – Т.: Фан, 2007. – 125 с.
14. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. – Т.: 2019. – 242 б.
15. Baxronova D. Olam manzarasining milliy-madaniy va lingvokognitiv kategoriyalanishi. – Toshkent, 2019. – 220 б.

4. Tarjimashunoslik

Yevropa va Markaziy Osiyoda tarjimashunoslikning shakllanishi va rivojlanish jarayonlari. Tarjima maktablari tushunchasi va ularning o'рни. Antik davr tarjimonlari hamda Yevropa va o'zbek tarjimonlarining faoliyati. Bog'dod,

Toledo va Xorazm tarjima maktablarining ahamiyati. Tarjima va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik. Madaniy birliklarni tarjima qilish usullari. Milliy madaniyatning tarjimaga ta'siri. Xalqlarning urf-odatlarini, diniy va ijtimoiy qarashlari, yashash tarzi va odob-axloqining tarjimada ifodalanishi. Tarjimaning leksik muammolari. So'z va uning ma'nosi. Leksik muqobillik va uning turlari: to'liq, qisman va muqobil yo'qligi. Leksik transformatsiyalar va ularning qo'llanilishi. So'z ma'nolarining turlari va ularning o'zaro aloqasi. Lug'aviy hamda kontekstual ma'nolarni tarjimada ifodalash usullari. Tarjimaning grammatik muammolari. Tillar o'rtasidagi grammatik farqlar. Grammatik modellar va muqobillik turlari. Morfologik hamda sintaktik moslik. Grammatik transformatsiyalar, jumladan qo'shish va tushirib qoldirish hodisalari. Frazzeologiya va tarjima o'rtasidagi munosabat. Frazzeologik birliklar va ularning turlari. Frazzeologik muqobillik darajalari. Frazzeologik iboralarni tarjima qilish yo'llari va usullari. Tarjimaning stilistik muammolari. Metafora, o'xshatish va metonimiya kabi vositalarni tarjima qilish. Stilistik va pragmatik ma'noning tarjimadagi o'rni. Leksik muqobillik nazariyasi. Tilshunoslarning bu boradagi qarashlari. Muqobillik darajalari va adekvat tarjima tushunchasi. Leksik transformatsiya turlari: substitutsiya, qo'shish, tushirib qoldirish, kompensatsiya va antonimik tarjima. Tarjimaning asosiy turlari. Ko'rib tarjima qilish va uning metodikasi. Tarjima qilish usullari. Ketma-ket tarjimaning xususiyatlari. Uning metodlari va qoidalari. Semantik asoslari. Mikrorevyu, belgilar tizimi va yozib olish usullari. Qisqartmalardan foydalanish. Sinxron tarjimaning mohiyati va vazifalari. Uning boshqa tarjima turlaridan farqi. Anjuman tarjimasi. Sinxron tarjimonning ko'nikmalari: nutq, xotira va tezkor fikrlash. Leksik va sintaktik birliklardan foydalanish. Matn mazmunini tez anglash va asosiy g'oyani ajratish. Kommunikativ vaziyatni hisobga olish hamda tarjimaga tayyorgarlik jarayoni. Sun'iy intellekt (AI) asosidagi tarjima tushunchasi va uning ishlash prinsiplari. AI tarjima tizimlarining rivojlanish bosqichlari va zamonaviy ko'rinishlari. AI tarjimaning an'anaviy tarjima usullaridan farqli jihatlari. CAT (Computer-Assisted Translation) vositalari haqida umumiy tushuncha. CAT dasturlarining asosiy funksiyalari: tarjima xotirasi (TM), terminologiya bazasi va boshqalar. CAT vositalarining tarjima jarayonidagi o'rni va qo'llanilishi. AI va CAT texnologiyalarining o'zaro bog'liqligi va integratsiyasi. Ularning tarjima sifati va tezligiga ta'siri. Afzalliklari va mavjud kamchiliklari. Tarjima amaliyotida AI va CAT'dan birgalikda foydalanish yo'llari. Zamonaviy tarjimon faoliyatida AI va CAT texnologiyalarining ahamiyati.

TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Виноградов В. С. Введение в переводоведение. – М.: Изд-во ин-та общ. сред. образования РАО, 2001. – 224 с.
2. Ғафуров И., Мўминов О., Қамбаров Н. Таржима назарияси. – Т.: Тафаккур Бўстон, 2012. – 216 б.

3. Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. Учебное пособие. – М.: ЭТС, 2002. – 424 с.
4. Рахимов Ф. Таржима назарияси ва амалиёти. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2016. – 176 б.
5. Рецкер А.И. Теория перевода и переводческая практика: Очерки лингвистической теории перевода. – М.: Р. Валент, 2007. – 244 с.
6. Muminov A. A Guide to simultaneous translation. – Т.: Tafakkur bo‘stoni, 2013. – 320 p.
7. Zanettin F. Computer-Assisted Translation and Corpus-Based Translation Studies. – Routledge, 2023.
8. Kenny D. Machine Translation and Post-Editing. – Routledge, 2022.
9. Munday J. Introducing Translation Studies: Theories and Applications. – Routledge, 2022.

BAHOLASH

Baho	Talabgorning bilim darajasi
100 – 87 “A’lo”	Talabgor berilgan savollar bo‘yicha xulosa qila oladi, ijodiy fikrlay oladi. Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik bo‘yicha mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo‘llay oladi, ixtisoslik hamda dissertatsiyasining mavzusi bo‘yicha berilgan savollar mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda tasavvurga ega deb topilganda.
86-73 “Yaxshi”	Talabgor qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik bo‘yicha mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo‘llay oladi, ixtisoslik hamda dissertatsiyasining mavzusi bo‘yicha berilgan savollar mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda tasavvurga ega deb topilganda.
72-60 “Qoniqarli”	Talabgor olgan bilimni amalda qo‘llay oladi, qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik hamda dissertatsiyasining mavzusi bo‘yicha berilgan savollar mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda tasavvurga ega deb topilganda.
0 – 59 “Qoniqarsiz”	Talabgor qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik bo‘yicha dasturni o‘zlashtirmagan, ushbu yo‘nalish mohiyatini tushunmaydi hamda ixtisoslik bo‘yicha tasavvurga ega emas deb topilganda.